

ONLAYN FOYDALANISH SHARTLARI

Ushbu onlayn-foydalanish shartlari Abbott kompaniyasi tomonidan boshqariladigan veb-saytlarga, shu jumladan uning bo'linmalari va filiallariga (birgalikda "Abbott" deb nomlanadi) kirishni tartibga soladi, ular ushbu onlayn foydalanish shartlariga (birgalikda "Abbott kompaniyasi veb-saytlari" deb nomlanadi) murojaat qiladi. Mazkur Onlayn-foydalanish shartlari, ularga havola qilinmagan, Abbott kompaniyasining veb-saytlariga yoki Abbott kompaniyasining veb-saytlari bog'lanishi mumkin bo'lgan uchinchi tomon veb-saytlariga taalluqli emas. Siz tomondan Abbott kompaniyasining veb-saytlaridan foydalanish mazkur Onlayn-foydalanish shartlari va **Abbott kompaniyasining veb-saytlarida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati** ta'sir doirasiga kiradi.

Amaldagi qonunchilik tomonidan ruxsat etilgan darajada, Abbott kompaniyasi, texnologik taraqqiyot, yuridik va huquqiy o'zgarishlar, tegishli tartibdagi biznes-amaliyotlarini hisobga olgan holda, ushbu Onlayn-foydalanish shartlariga o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar Abbott kompaniyasi mazkur Onlayn-foydalanish shartlariga o'zgartirishlar kiritisa, Onlayn-foydalanish shartlarining yangilangan versiyasi tegishli o'zgarishlarni aks ettiradi va biz yuqorida ko'rsatilgan Onlayn-foydalanish shartlarining kuchga kirish sanasini yangilash orqali sizni o'zgarishlar haqida xabardor qilamiz. Abbott kompaniyasining veb-saytlariga kirish va ulardan foydalanish orqali siz Abbott kompaniyasining veb-saytlariga kirishda tanishib chiqishingiz mumkin bo'lgan joriy versiyadagi mazkur Onlayn-foydalanish shartlarini o'qib chiqqanligingizga, tushunganligingizga va ularga rioya qilishga rozilik bildirasiz. Agar siz ushbu Onlayn-foydalanish shartlariga rozi bo'lmasangiz yoki Abbott kompaniyasining veb-saytlari faoliyatidan norozi bo'lsangiz, Sizning amaldagi qonunchilik doirasida qonuniy himoya qilishning yagona va alohida usuli Abbott kompaniyasining ushbu veb-saytidan foydalanishni to'xtatish hisoblanadi.

JAVOBGARLIKNI RAD ETISH

Siz quyidagilarni tan olasiz va rozilik bildirasiz:

a) Biz har doim mahsulot va xizmatlarimizdagi eng so'nggi ishlanmalarni hamda Abbott kompaniyasi haqidagi boshqa ma'lumotlarni Abbott kompaniyasining veb-saytlarida taqdim etishga harakat qilsakda, ma'lumotlar "BORICHA" formatda taqdim etilgan va texnik noaniqliklar, tipografik xatolar mavjud bo'lishi yoki ma'lumotlar dolzarb bo'lmasligi mumkin. Abbott kompaniyasi istalgan vaqtda Abbott kompaniyasining veb-saytlari tarkibidagi ma'lumotlarni oldindan ogohlantirmasdan qo'shish, o'chirish yoki o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

b) Abbott kompaniyasi o'z veb-saytlarida joylashtirilgan axborotlar yoki ma'lumotlarga nisbatan hech qanday ishonch yoki biron-bir turdagi yoki toifadagi kafolat bermaydi. Abbott kompaniyasi, ushbu bilan, amaldagi qonunchilik tomonidan ruxsat etilgan

darajada, qonun, shartnoma yoki boshqa ko'rinishda ifodalangan yoki nazarda tutilgan istalgan turdagi tasdiq yoki kafolatlar uchun javobgarlikni rad etadi, hech qanday holatda Abbott kompaniyasi istalgan turdagi yoki tusdagi, shu jumladan, cheklanmagan holda, bevosita, bilvosita, alohida (jumladan, yo'qotilgan foyda), sababli yoki tasodifiy bo'lgan zarar, Abbott kompaniyasining veb-saytlarining mavjudligi yoki ulardan foydalanishi va/yoki Abbott kompaniyasining veb-saytlarida joylashtirilgan axborotlar yoki ma'lumotlar bilan bog'liq yoki ular asosida kelib chiqadigan, Abbott kompaniyasi bunday zarar bo'lishi mumkinligi haqida o'ylagan yoki o'ylamaganligidan qattiq nazar, zararlar uchun javobgarlikni o'zidan soqit qiladi.

c) Abbott kompaniyasi uchinchi shaxslardan olingan istalgan turdagi axborot yoki ma'lumotlarning, shu jumladan uchinchi tomon saytlari yoki ulardan olingan giperhavolalarning aniqligi, samaradorligi, o'z vaqtida ekanligi yoki muvofiqligi uchun javobgar emas va hech qanday kafolat bermaydi. Abbott kompaniyasining veb-saytlarida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, Abbott kompaniyasi o'z veb-saytlarida joylashtirilgan e'lonlar taxtasi, chatlar yoki boshqa shunga o'xshash forumlarda uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan axborot tarkibini tahrir qilmaydi, ko'rib chiqmaydi yoki boshqa yo'l bilan nazorat qilmaydi. Shu munosabat bilan, bunday ma'lumotlar shubhali va Abbott kompaniyasi tomonidan tasdiqlanmagan deb hisoblanishi kerak.

d) Abbott kompaniyasining veb-saytlarida Abbott kompaniyasining kelajakdagi voqealar va biznes rivojlanishiga oid umidlarini aks ettiruvchi istiqbolli bayonotlar bo'lishi mumkin. Istiqbolni ifodalovchi bayonotlar xavf va noaniqliklarni o'z ichiga oladi. Voqealarning haqiqiy rivojlanishi yoki natijalari taxmin qilinganidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin va ko'plab omillarga, jumladan (lekin bu bilan cheklanmagan holda), davom etayotgan ishlab chiqish dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlanishi, joriy yoki kelajakdagi klinik tadqiqotlar natijalari, mahsulotlarni tijorat maqsadlarida joriy etish, farmatsevtika mahsulotlarini tartibga soluvchi tasdiqlash, patentlarning ishonchliligi va amal qilish muddati, tijorat munosabatlarining barqarorligi va umumiy iqtisodiy sharoitlarga bog'liq. Abbott kompaniyasi o'z veb-saytlarini muntazam ravishda yangilab turishni mo'ljallagan, lekin shu bilan birga veb-saytlardagi istalgan axborot tarkibini yangilash bo'yicha hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

SIZNING FOYDALANISHINGIZ

Siz quyidagilarga tushunib, inobatga olib rozilik bildirasiz:

a) Abbott kompaniyasining veb-saytlaridan foydalanish orqali Siz Abbott kompaniyasining veb-saytlarida yoki bizning istalgan serverlarimizda joylashtirilgan elektron ma'lumotlarimizni o'zgartirishga va buzmaslikka rozilik bildirasiz. Bundan tashqari, Siz Abbott kompaniyasining veb-saytlarining xavfsizlik choralarini chetlab o'tmaslikka va barcha amaldagi mahalliy, davlat, federal va xalqaro qonunlar, qoidalar va qarorlar talablariga rioya qilishga rozilik bildirasiz.

b) Siz mazkur Onlayn-foydalanish shartlari va **Abbott kompaniyasining veb-saytlarida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatiga** muvofiq Abbott kompaniyasining veb-saytlariga yuklagan yoki boshqa yo'l bilan yuborilgan istalgan ma'lumotlardan Abbott

kompaniyasi afzal ko'rgan istalgan usulda, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, istalgan turdagi formatda nusxa ko'chirish, ko'rsatish, ijro etish yoki nashr etish, materiallarni o'zgartirish, boshqa materiallarga kiritish yoki ushbu materiallarga asoslangan ishlar yaratish kabi usulda foydalanish huquqini Abbott kompaniyasiga berasiz.

c) Abbott kompaniyasi tomonidan maxsus tarzda aytib o'tilgan yoki oldindan kelishilgan holatlardan tashqari, agar Abbott kompaniyasining veb-saytlari foydalanuvchisi Abbott kompaniyasiga og'zaki, yozma yoki elektron xabar yuborsa (qayta aloqa, savollar, sharhlar, takliflar, g'oyalar va boshqalar), Abbott kompaniyasi va Abbott kompaniyasining veb-saytlari foydalanuvchisi o'rtasida hech qanday maxfiylik munosabatlari bo'lmaydi. Agar Abbott kompaniyasining biron-bir veb-sayti bunday ma'lumotni talab qilsa yoki so'rasa va ushbu ma'lumot shaxsni aniqlashga imkon beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olsa (masalan, familiya, manzil, telefon raqami, elektron pochta manzili), Abbott kompaniyasi ushbu ma'lumotni tegishli Foydalanuvchining roziligi bilan **Abbott kompaniyasining veb-saytlarida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatida** ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq olish, ishlatish va saqlash niyatida bo'ladi. Aks holda, bunday xabarlar va ular bilan bog'liq ravishda taqdim etilgan istalgan ma'lumotlar maxfiy bo'lmagan deb hisoblanadi va Abbott kompaniyasi ushbu ma'lumotni har qanday maqsadda, shu jumladan, cheklanmagan holda, ushbu ma'lumotni kiritishni o'z ichiga olgan mahsulotlarni tadqiq qilish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, ishlatish yoki sotish uchun ko'paytirish, nashr etish yoki boshqa usulda foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Abbott kompaniyasiga biron-bir ma'lumot yuborgan shaxs: uning mazmuni, shu jumladan, uning ishonchliligi, aniqligi va boshqa bironing huquqlarini, shu jumladan, egalik huquqini buzmagani uchun to'liq javobgar bo'ladi.

MAHSULOTLARNING MARKIROVKALANISHI

Abbott kompaniyasining mahalliy veb-saytlari Abbott kompaniyasi va uning mahsulotlari to'g'risida tegishli hududda rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan va erkin muomalada bo'lgan umumiy ma'lumotlar, mahalliy qonunchilikka qattiy tarzda mos keladigan reklama materiallarini o'z ichiga oladi, shuningdek, shaxsiy notijorat maqsadlarda bunday ma'lumotlar bilan tanishishingiz yoki tibbiy, farmatsevtika yoki sog'liqni saqlash tizimining boshqa xodimi bo'lsangiz, kasbiy darajangizni oshirish maqsadda tegishli veb-saytga joylashtirish uchun foydali deb hisoblagan boshqa ilmiy ma'lumotlar mavjud.

Shunga qaramay, biz tegishli mamlakatning mahalliy veb-saytlarida Abbott kompaniyasining xorijiy veb-saytlariga havolalar bo'lishi mumkinligiga e'tiboringizni qaratamiz. Bunday holda, mahsulotlarning nomlari, tavsiflari va markirovkalari yanada yaqinroq aloqada bo'lishi yoki AQSh yoki sizning doimiy yashash joyingiz bo'lmagan boshqa mamlakat qonunlariga muvofiq yaratilishi mumkin. Ba'zi mahsulotlar barcha mamlakatlarda mavjud bo'lmasligi yoki boshqa savdo nomlari ostida, boshqa dozada yoki boshqa foydalanish ko'rsatkichlari bilan mavjud bo'lishi mumkin. Sanab o'tilgan mahsulotlarning aksariyati faqat sog'liqni saqlash sohasidagi mahalliy mutassis ko'rsatmasi bo'yicha tarqatiladi.

Abbott kompaniyasi tomonidan oldindan kelishilgan holatlardan tashqari, Abbott kompaniyasining direktori, xodimlari, agentlari yoki vakillari, uning sho'ba korxonalari va filiallari tibbiy konsultatsiyalar, diagnostika, davolash yoki boshqa tibbiy xizmatlarni amalga oshirishda ishtirok etmaydilar, masalan, Abbott kompaniyasi veb-saytlari orqali "shifokor-bemor" kabi istalgan turdagi o'zaro munosabatlarni yaratishi mumkin. Istalgan holatda, bizning veb-saytlarimizda joylashtirilgan mahsulotlarimiz haqida hech qanday ma'lumot mutaxassisning bevosita maslahati yoki tegishli mutaxassis (shifokor) bilan bunday maslahat o'rnini bosuvchi sifatida ko'rib chiqilmasligi va tushunilmasligi kerak.

E'tiboringizni shunga qaratamizki, Abbott mahsulotlari foydalanishga qarshi ko'rsatmalarga ega, shuning uchun ularni iste'mol qilishdan oldin siz ularni qo'llash bo'yicha yo'riqnomani diqqat bilan o'qib chiqishingiz va shifokor bilan maslahatlashingiz kerak.

Hech qanday holatda Abbott kompaniyasining veb-saytlarida joylashtirilgan ma'lumotlar sizning sog'lig'ingiz va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklarni mustaqil tashxislash uchun ishlatilmasligi kerak.

RF qonunchiligining talablariga muvofiq, Abbott kompaniyasi veb-saytlarining ayrim bo'limlarida joylashgan ma'lumotlar faqat tibbiyot va farmatsevtika xodimlari, shuningdek sog'liqni saqlash tizimining boshqa xodimlari uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bunday holatda, **foydalanish uchun maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan retseptura bo'yicha dori vositalar va tibbiy mahsulotlar bo'limidan foydalanish qoidalarida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq bunday bo'limlarga kirish cheklanishi mumkin.** Bunday bo'limlarga kirish uchun Abbott kompaniyasi Sizdan tibbiyot yoki farmatsevtika bilan bog'liq ba'zi savollarga javob berishingizni va/yoki tegishli veb-saytga tashrif buyurganingizda tibbiy yoki

farmatsevtika xodimi yoki sog'liqni saqlash tizimining boshqa xodimining amaldagi maqomini tasdiqlash uchun veb-saytlarda qo'shimcha ro'yxatdan o'tish orqali ma'lumot taqdim etishingizni so'rash huquqini o'zida saqlab qoladi.

INTELLEKTUAL MULK

Abbott kompaniyasining veb-saytlarida e'lon qilingan ma'lumotlar, hujjatlar va muvofiq grafikalar (bundan buyon matnda "Ma'lumot" deb yuritiladi) Abbott kompaniyasining maxsus mulki hisoblanadi, Abbott kompaniyasi bilan shartnoma munosabatlari orqali bog'liq bo'lgan uchinchi shaxs tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar bundan mustasno. Ma'lumotdan foydalanish uchun ruxsatnoma quyidagi shartlarda taqdim etiladi: (1) barcha nusxalarda asl manbaga va yuqorida aytib o'tilgan mualliflik huquqi bayonotiga havola qilinadi; (2) Ma'lumotlar axborot, notijorat maqsadlarda va faqat shaxsiy foydalanish uchun ishlatiladi; (3) Ma'lumotlar hech qanday tarzda o'zgartirilmaydi; (4) Abbott kompaniyasining ushbu veb-saytida taqdim etilgan grafik tasvirlar ular bilan birga kelgan matndan alohida foydalanilmaydi. Abbott kompaniyasi uchinchi shaxs tomonidan taqdim etilgan axborot tarkibi uchun javobgar emas va Siz bunday materiallardan ularning mualliflik huquqi egalarining ruxsatisiz foydalanish va tarqatish huquqiga ega emassiz.

Yuqorida tavsiflangan ruxsat etilgan holatlardan tashqari, hech kimga Abbott kompaniyasining biron-bir patenti, savdo markasi yoki boshqa mulk huquqi bo'yicha aniq va nazarda tutilgan litsenziyalar yoki huquqlar taqdim etilmaydi.

Abbott kompaniyasining veb-saytlarida Abbott kompaniyasining savdo belgilari, savdo nomlari, firma uslubi yoki mahsulotlaridan foydalanishga Abbott kompaniyasining oldindan yozma ruxsatisiz yo'l qo'yilmaydi.

MAXFIYLIK VA XAVFSIZLIK

Abbott kompaniyasi mazkur veb-sayt orqali uzatiladigan ma'lumotlaringizni maxfiyligini ta'minlash majburiyatini oladi. Biz iste'molchilar va Abbott kompaniyasining veb-saytlariga tashrif buyuruvchilar uchun maxfiylikning muhimligini tushunamiz. Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishimiz **Abbott kompaniyasining veb-saytlarida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatimiz** bilan belgilanadi, siz Abbott kompaniyasining veb-saytlaridan foydalanishni boshlash orqali roziligingizni tasdiqladingiz.

Ushbu bilan siz shaxsiy ma'lumotlaringizni Abbott kompaniyasining veb-saytlariga yuborishda, Abbott kompaniyasi avtorizatsiya qilinmasdan kirish yoki aralashishni oldini olish uchun samarali himoya choralariga ega bo'lishiga qaramay, Abbott kompaniyasining veb-saytlariga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlaringizning mutlaq maxfiyligi Abbott kompaniyasi tomonidan qabul qilingan choralarga to'liq bog'liq bo'lmasligini tan olasiz va rozi bo'lasiz.

Ehtimoldan yiroq bo'lgan holatda, agar, bizning sa'y-harakatlarimizga qaramay, aralashuv yoki avtorizatsiya qilinmasdan kirish sodir bo'lsa, Abbott kompaniyasi amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan chegaralar doirasida bunday aralashuv yoki avtorizatsiya qilinmasdan kirish uchun, shuningdek iste'molchi yoki foydalanuvchi zarar ko'radigan istalgan turdagi bevosita, bilvosita, maxsus, tasodifiy yoki sababli zararlar (jumladan, yo'qolgan foyda) uchun javobgar bo'lmaydi, hatto Abbott kompaniyasi oldindan bunday zarar yetkazilishi ehtimoli haqida ogohlantirilgan bo'lsa ham, Abbott kompaniyasi bevosita yoki bilvosita foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga aralashuv uchun yoki avtorizatsiya qilinmasdan kirishga duchor bo'lmasligiga kafolat bermaydi va tijorat sifati va muayyan maqsadlar uchun qo'llanilganda yaroqliligi to'g'risida hech qanday kafolat bermaydi. Har bir foydalanuvchi o'z parolining maxfiyligini saqlash uchun mustaqil ravishda javobgardir.

JAVOBGARLIK CHEKLOVLARI

Abbott kompaniyasi o'zining veb-saytlarida taqdim etilgan, yo'naltirilgan yoki boshqa yo'l bilan paydo bo'lgan materiallar, ma'lumotlar yoki fikrlar bo'yicha hech qanday majburiyat olmaydi. Bunday materiallar, ma'lumotlar va fikrlarga tayanish butunlay sizning xavf-xataringizga bog'liq. Abbott kompaniyasi o'zining veb-saytlari yoki ularga

taqdim etilgan materiallardan foydalanish natijasida yetkazilgan ziyon va/yoki zarar uchun javobgar emas.

Abbott kompaniyasining veb-saytlari, sayt tarkibi, Abbott kompaniyasining saytlarida yoki veb-saytlari orqali taqdim etiladigan mahsulotlar va xizmatlar barcha oqibatlar bilan birga “boricha” va “kirib kelishi sayin” shaklida taqdim etilgan. Hech qanday holatda Abbott kompaniyasi yoki uning yetkazib beruvchilari yoki shunga mos ravishda ularning rahbarlari, xodimlari yoki agentlari (quyida “Abbott bilan bog‘liq shaxslar” deb nomlanadi), sizning Abbott kompaniyasining veb-saytlaridan, sayt materiallaridan, saytlarda yoki ular orqali taqdim etiladigan xizmatlardan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan istalgan turdagi zarar, shu jumladan istalgan maxsus, bilvosita, jarima, tasodifiy, jazo tartibida berilgan yoki oqibatli zarar, shu jumladan (lekin bu bilan cheklanmagan holda) Abbott kompaniyasining veb-saytlarida yoki sayt materiallarida kechikish, xizmatlarning vaqtincha to‘xtatilishi, viruslar, fayllarni yoki elektron xabarlarini o‘chirish, xatolar, o‘tkazib yuborishlar yoki boshqa noaniqliklar bilan bog‘liq ziyon, foyda yo‘qotish yoki zarar uchun, bu Abbott kompaniyasi tomonidan biron-bir kamchiliklar bilan bog‘liq yoki Abbott bunday zarar ehtimoli haqida ogohlantirilgan yoki ogohlantirilmaganligidan qat‘i nazar, javobgar bo‘lmaydi.

Amaldagi qonunchilik ruxsat etilgan darajada, Siz, amaldagi qonunchilikdan qat‘i nazar, Abbott kompaniyasining veb-saytlaridan yoki ushbu Onlayn-foydalanish shartlaridan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan da‘voni berish uchun asos paydo bo‘lganidan 1 (bir) yildan ko‘proq vaqt o‘tgach, siz da‘vo bera olmasligingizga rozilik bildirasiz.

Abbott kompaniyasining veb-saytlariga qo‘shimcha rasmiy bildirishnomalar, mas‘uliyatni rad etish to‘g‘risidagi arizalar va boshqa qoidalar va shartlar qo‘llanilishi mumkinligini yodda tuting.

UMUMIY QOIDALAR

Saytda taqdim etilgan ma‘lumotlar faqat voyaga yetgan shaxslar tomonidan ko‘rish uchun mo‘ljallangan.

Ushbu bilan Siz mazkur Onlayn-foydalanish shartlari va **Abbott kompaniyasining veb-saytlarida shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlash siyosati** yagona, ajralmas kelishuv ekanligiga rozilik bildirasiz. Ushbu bilan Siz mazkur Onlayn-foydalanish shartlari va **Abbott kompaniyasining veb-saytlarida shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlash siyosati** bilan tanishib chiqib, Siz ular bilan roziligingizni tasdiqlaysiz va Abbott kompaniyasining veb-saytlarining ushbu Onlayn-foydalanish shartlari va boshqa faoliyat yuritish shartlari Illinoys shtati qonunlari va AQSh boshqa federal qonunlari bilan cheklanmagan holda tartibga solinishi haqida ogohlantirilganligizni tasdiqlaysiz. Illinoys shtati qonunlari, Illinoys shtati qonunlari Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining majburiy me‘yorlariga, xususan, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikka mos keladigan darajada mazkur Onlayn-foydalanish shartlari bajarilishini nazorat qiladi. Agar mazkur Onlayn-foydalanish shartlarining istalgan qoidasi vakolatli sud organlari tomonidan haqiqiy emas yoki yuridik kuchga ega emas deb topilgan taqdirda, siz mazkur Onlayn-foydalanish shartlarining qolgan qoidalari to‘liq kuchda va amalda saqlanishiga

rozilik bildirasiz.

Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq holda, sizning kirishingiz yoki veb-saytlar va ular tarkibidagi ma'lumotlardan boshqa foydalanish orqali Abbott kompaniyasining veb-saytlaridan foydalanishingizga yo'naltirilgan istalgan harakatingiz orqali Siz mazkur Onlayn-foydalanish shartlari bilan tanishib chiqqanligingizni tan olasiz va ushbu Onlayn-foydalanish shartlariga to'liq roziligingizni bildirasiz. Shunday qilib, Siz Abbott kompaniyasining veb-saytlariga tashrif buyurganingizda va ular tarkibidagi istalgan ma'lumotdan foydalanayotganingizda, ularga rioya qilishga va ularning hech qanday cheklovlarsiz yoki qo'shimcha shartlarsiz bajarilishini ta'minlash majburiyatini avtomatik ravishda o'z zimmangizga olasiz.